

---

## “BILGA XOQON” ROMANIDA TARIXIY FAKTLAR TALQINI MASALASI

*Dildora Ibragimova*

*Alfraganus universiteti*

*Sharq filologiyasi kafedrası katta o‘qituvchisi*

Orcid: 0009-0002-7839-5615

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Isajon Sultonning “Bilga xoqon” romanida tarixiy faktlarning badiiy talqini masalasi tahlil qilinadi. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabat, muallifning tarixiy voqealarni zamonaviy badiiy tafakkur asosida qayta talqin etish tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, tarix fanida qo‘llaniladigan tarixiy faktlar talqinining asosiy turlari — diniy, taraqqiyotning chiziqli, madaniyatlar tarixi hamda sivilizatsion yondashuvlar roman misolida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida tarixiy roman janrida tarixiy manbalar va badiiy interpretatsiya uyg‘unligi milliy tarixiy xotirani tiklash hamda tarixiy shaxs obrazini badiiy-estetik jihatdan yoritishda muhim omil ekanligi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** Isajon Sulton, “Bilga xoqon” romani, tarixiy roman, tarixiy fakt, tarixiy talqin, badiiy interpretatsiya, tarixiy haqiqat, tarixiy shaxs, milliy tarixiy xotira, sivilizatsion yondashuv, madaniyatlar tarixi, turkiy davlatchilik.

XXI asr o‘zbek adabiyotida yozilgan tarixiy asarlarning barchasi mazmunan jamiyatning yangicha dunyoqarashi, tarixni yangicha tushuna boshlagani sabab talqin ehtiyoji o‘laroq paydo bo‘layotir. Isajon Sultonning tarixiy romanlari haqida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Muallif romanlari orqali o‘z o‘quvchilariga millatimiz tarixining eng gullagan davrlarini yangicha talqinda taqdim etadi.

Tarix fanida tarixiy faktlar talqinining bir necha turlari ajratib o‘rganiladi. Tabiiyki, badiiy asarlar tarkibida ham mazkur talqinlar mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi. Shu jihatdan tarixiy nasr namunalarini quyidagi yetakchi talqin turlari asosida tahlil qilish mumkin: 1) diniy talqin, 2) taraqqiyotning chiziqli talqini, 3) madaniyatlar tarixi talqini, 4) sivilizatsiyalar talqini.

Tarixiy faktlarning diniy talqini insoniyat tarixidagi asosiy muammolar va

gʻoyalarning diniy qarashlar doirasida shakllantirilishi hisoblanadi (1-jadval). Insoniyatga oid bu abadiy muammolarning dastlabkisi sayyoramiz hayotining mazmun va mohiyatidir. Yakkaxudolik dinlarida hayotning mazmuni odamzotning Yaratganga tomon inilishi va Oliy haqiqatga erishishida yotadi. Bu yoʻlda turli sinovlar natijasida inson shaxsi shakllanadi. Keyingi muammo – insoniyat tarixining boshlanishi va oxiri masalasi boʻlib, diniy talqinda tarix Odam Ota va Momo Havvoning yaratilishi va jannatdan quvilishidan boshlangani aytiladi. Bu talqinda Yaratganning eng soʻnggi elchisi Muhammad (s.a.v.) hayotiga qadar sodir boʻlgan voqealar, paygʻambarlarning hayot yoʻli xronika tartibida bayon qilinadi. Sayyoramizdagi hayotning tugashi, inson uchun nomaʼlum boʻlgan yakun – Qiyomat haqidagi diniy gʻoya ilmiy ahamiyatga ega boʻlib, kelajakni bashorat qilishda ham foydalaniladi. Uchinchi muammo – tarixning mazmuni, u insonning aqlan, qalban va ruhan rivojlanishi va oxir-oqibat Haqqa qovushishi yoʻlini ifoda etadi. Yaʼni, insoniyat tarixidan “yashash” tushunchasining mohiyatini izlash asnosida “umrni qanday kechirmoq kerak?” savoliga yechim topishga, kamolotga olib boruvchi hayotning eng namunaviy modelini yaratishga harakat qiladi.

*1-jadval*

### **Tarixiy faktlarning diniy talqinida bosh masalalar va ularning izohi**

| Diniy talqinning asosiy masalalari                                                                            |                                                                                                          |                                                                                                                                      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Olamning paydo boʻlishi                                                                                       | Odamzot tarixining boshlanishi va yakuni                                                                 | Toʻgʻri hayot kechirishning namunaviy modeli                                                                                         |
| Olar  qanday paydo boʻldi? | Yara  lgan ilk inson? | Toʻgʻ  i yashashning namunaviy tartib-qoidalari |
| Olamni kim yaratdi?                                                                                           | Odamning yaratilishida maqsad?                                                                           | Maqsadga olib boruvchi yoʻllar, tariqatlar                                                                                           |
| Olamni yaratishdan murod nima edi?                                                                            | Odamning Sayyoramizga tushishi? Taqdir va iroda masalasi                                                 |                                                                                                                                      |

|                                            |  |  |
|--------------------------------------------|--|--|
| Olam qanday qonuniyatlar asosiga qurilgan? |  |  |
|--------------------------------------------|--|--|

Ma'lumli, Bilga xoqon shaxsiyati va uning turkiy davlatchilik tarixidagi o'rni nafaqat tarixshunoslarning, balki badiiy adabiotot vakillarining ham diqqat markazida bo'lib kelgan. Bilga xoqon mavzusini badiiy adabiyotga olib kirish o'tgan asr o'rtalarida boshlangan bo'lib, turk yozuvchisi Nihol Otsizning uch romani "Ko'kturklarning o'limi" (1946), "Ko'kturklarning tirilishi" (1949), "Telba bo'ri" (1958) mashhur bo'lgan. O'zbek adabiyotida 2015-yilda Otauli (Rahimjon Otayev) tomonidan "Bilga xoqon" dostoni e'lon qilingan bo'lsada, bu asar adabiyotshunoslar diqqat-e'tiboridan chetda qoldi. Isajon Sultonning "Bilga xoqon" romani paydo bo'lishi bilan mavzuning o'zbek badiiy adabiyotidagi ahamiyati baholana boshladi. Aytish lozimki, Bulga xoqon mavzusi romanchilikda paydo bo'lguniga qadar o'zbek she'riyatida ancha keng tarqalgan. Mirtemirning bitiktoshlar matni asosidagi "O'rxun bitiklari" badiiy tarjimasi, Rauf Parfining bitiklardan ilhomlangan "Turk bitiklari" she'riy asari, Xurshid Davronning bitiklarga bag'ishlangan "Turon bitiklari" she'riy parchalari Bilga xoqon shaxsiyatining poetik jihatdan yoritilishida muhim ahamiyatga ega.

Otauli va Isajon Sulton asarlarida tarixiy omillar ayni manbalarga tayangan holda shakllanadi. Dastlabki manba, shubhasiz O'rxun-Enasoy bitiklari bo'lib, ikkala asarda ham obyekt sifatida siyosiy hodisalar, turkiy xalqlarning parokanda bo'lishi va qayta tiklanishi, Bilga xoqonning otashin nutqlari, xalqqa murojaatlari, urushlar va ichki nizolar yoritiladi. Yana bir manba xitoy yilnomalari asosida turk xoqonligi va Tang imperiyasi munosabatlari, saroy diplomatiyasi, elchilik munosabatlari hamda siyosiy o'yinlar tasvirlari kiritilgan. Qolaversa, turkiy xalqlarnng og'zaki rivoyatlari asosida qahramonlik motivlari, epik tilsollar, "alp", "bilga", "qut" kabi qadimiy tushunchalarning badiiy shakllarini uchratamiz. Shunga qaramay har ikki asarning badiiy o'ziga xosligi fakt va muallif talqini nuqtai nazaridan farqliliklarga ega.

Isajon Sulton romanida tarixiy faktlar badiiy-falsafiy roman modeli orqali qayta talqin qilinadi. Turkiy xalqlarning tanazzuli, Bilga xoqonning taxtga kelishi, Kulteginning harbiy yurishlari va turkiy davlatni qayta tiklashdagi roli, Xitoy bilan diplomatik

munosabatlar, ichki xoinlik, beklarning bo‘ysunmasligi tarixiy manbalardagi ma’lumotlar bilan mos keladi. Ammo muallif talqinida Bilga xoqon obrazi ruhiy-falsafiy chuqurlashtirilgan holda taqdim etiladi. Isajon Sulton tarixiy shaxsni tashqi - qahramonlik sifatlari bilan bir qatorda uning ichki olamini, tanlovlari, mas’uliyatlari bilan tasvirlaydi. Adib talqinidagi Bilga xoqon siyosiy arbob sifatida tasvirlanadi.

*“Мен ўзим уришгим келиб, қорда бота-бота қон тўкишни устаб келмадим, – деди Билга хоқон. – Табғач сизни устимга юбориб, ё сиздан, ё мендан қутулишни кўзлабди. Қирғиз уруғ ишонувчан, тўғри улус, уни-да устимга юбормоқ устабди. Сўнг уни сизга, сизни унга қайраб иккингишни йўқ қилмоқ устабди... Ёт бир ёнда қолиб, ўз қондошингизга тиг урасизми?”* Ushbu tasvirlarda Bilga xoqonning siyosiy arbob sifatida qardosh xalqlarni birlashtirish yo‘lidagi fikrlari aks etgan. Bitiktoshlarda turkiy xalqlarning tabg‘achlar bilan munosabatlari ko‘pincha qisqa, fakt shaklidagi qaydlarda aks etadi, ya’ni, aldanish, bo‘yin egish, siyosiy bosim, mustaqillikning qayta tiklanishi kabi voqealar sanab o‘tiladi. “Bilga xoqon” romanida esa mazkur munosabatlar psixologik dramatizm, murakkab diplomatik o‘yinlar orqali tasvirlanadi. Natijada, bitiklardagi quruq faktlar badiiy talqinda shaxslararo qarama-qarshilik, yashirin diplomatik strategiyalar, siyosiy hiyla va ruhiy bosimlar uyg‘unligida jonlanadi.

O‘rxun bitiklarida “Tabg‘ach budun so‘zini shirin qilur, nozu ne‘matni yog‘dirur” mazmunidagi parcha uchraydi. Isajon Sulton romanida ushbu satrlar ko‘p qatlamli sahnaga aylantiriladi. Muallif Xitoy elchilarining sadosiz jilmayishlari, nozik ohangdagi so‘zlari orqali ular siyosatining asl mohiyatini ochib beradi. Muallif xitoyliklarni “Қоруви кичик, билаги кучсиз, тутуми бўш эмиш. Кучсиз киши ўтрикчи бўлади-ку? Табғач шундай экан” tarzida ta’riflab, “Чин кишиси авроқчи экан, озиқчи экан. Туркийларга ялтир-юлтир нарсалар, ипак матолар бериб, кутку билан ўзига қаратди” deya qayd etadi.

Talqin usullaridan biri chiziqli talqin tarixni uzluksiz taraqqiy etuvchi jarayon sifatida ko‘radi va tarixiy jarayonlar bir yo‘nalishda, doimiy o‘sish va rivojlanish asosida kechishini ta’kidlaydi. Chiziqli talqinning taraqqiyot g‘oyasiga ko‘ra jamiyat doimiy rivojlanadi, fan, texnika, madaniyat va boshqaruv tizimlari takomillashib beradi. Bu talqin tarixning oldinga siljishi va orqaga qaytmasligi, jamiyat turli bosqichlarda rivojlanishi, tarixiy hodisalar o‘rtasida sabab va oqibat munosabatlari mavjud ekanini ta’kidlaydi. Talqinning asosida Gegelning tarix falsafasi hamda K.Marksning tarixiy materializm

g'oyasi yotadi. Ikkala olim ham tarixni umumbashariy hodisa sifatida qayd etadi, unda barcha kishilar va barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan obyektiv qonuniyatlar amal qiladi, deb hisoblaydi. Talqinning bu usulida tarixlar uch bosqichga bo'lib o'rganiladi: Sharq xalqlari tarixi, qadimgi Yunon-Rim tarixi va Yevropa tarixi. Shuningdek, talqinning asosida eng muhim ijtimoiy institut sifatida davlat tushunchasi qayd etiladi (2-jadval).

*2-jadval*

### **Butunjahon chiziqli talqin asoslari**

| <b>Davlatchilik tarixi</b>            |                                  |                                         |
|---------------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------------|
| Sharq xalqlari<br>davlatchilik tarixi | Yunon-Rim<br>davlatchilik tarixi | Yevropa xalqlari<br>davlatchilik tarixi |

Badiiy adabiyotdan farqli o'laroq, tarixchilikda chiziqli talqindan keng foydalaniladi. Insoniyat tarixi, xalqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, davlatlarning paydo bo'lishi, sanoatlashish, texnika va texnologiyalar rivoji chiziqli talqin asosida tushuntiriladi. Talqinning yana bir turi madaniy-tarixiy talqin bo'lib, mahalliy sivilizatsiyalar g'oyasiga asoslanadi. Dunyo tarixida mavjud taraqqiy etgan, sivilizatsiyaga erishgan xalqlar hayoti mazkur talqinning asosini tashkil etadi. Turkiy xalqlar sivilizatsiyasi VI asrda Ashina qabilalari tomonidan asos solingan Turk xoqonligi bilan boshlanadi. Ammo, boshqa boblarda ta'kidlaganimizdek, zamonaviy tarixchilik turkiy xalqlar tarixini turk xoqonligidan ancha oldin yashab o'tgan xun qabilalari bilan bog'lamoqda. Turk xoqonligi paydo bo'lguniga qadar turkiy xalqlar mo'g'ullar va boshqa ko'chmanchi qabilalar bilan birga Xun imperiyasi tarkibida o'zining taraqqiyot davrlarini boshdan kechirgan. Demak, turkiy xalqlarning ajdodlari hisoblangan Xun imperiyasini sivilizatsiyasining ilk nuqtasi sifatida belgilash o'rinli bo'ladi. Shularni inobarga olib turkiy xalqlar sivilizatsiyasini Oq Xun imperiyasi (390-570yy), Turk xoqonligi (552-745yy), Qoraxoniylar davlati (840-1212yy), G'aznaviylar davlati (962-1186yy), Saljuqiylar davlati (1040-1157yy), Xarazmshohlar davlati (1097-1231yy), Oltin O'rda (1236-1502yy), Temuriylar imperiyasi (1368-1501yy) va Boburiylar imperiyasi (1526-1858yy) taraqqiyoti doirasida belgilash mumkin. O'zbek adabiyotida ushbu davrlarga oid ko'plab tarixiy qissa va romanlar mavjud. O'tgan asrning ikkinchi yarmida yozila boshlagan mazkur asarlarning aksari o'rta asrlar turkiy xalqlar tarixi mavzusini qamrab

oladi. Ulardan Asad Dilmurodning “Mahmud Torobiy”, “Pahlavon Muhammad” romanlari, Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” romani, Erkin Samandarning “Sulton Jaloliddin” romani, Maqsud Qoriyevning “Spitamen” romani, Mirkarim Osimning “Jayhun ustida bulutlar”, “Karvon yo‘llarida”, “Nur va zulmat”, “O‘tror”, “Shiroq”, “Singan setor”, “To‘maris”, “Zulmat ichra nur” qissalari, Mirmuhsinning “Temur Malik”, “Turon malikasi” romanlari, Muhammad Alining “Sarbadorlar”, ikki qismdan iborat “Ulug‘ saltanat” romanlari (1-kitob “Jahongir Mirzo”, 2-kitob “Umarshayx Mirzo”), Sobir Abdullaning “Mavloni Muqimiy” romani, Nusrat Rahmatning “Jadid” romani, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” romanlari, Oybekning “Navoiy” romani, Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni”, “Yulduzli tunlar” romanlari, Pirmat Shermuhamedovning “Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini” romani, Sa‘dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani, Shahodat Isaxonovaning “Bibixonim”, “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” romani, Shuhratning “Mashrab” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy nasrining yetuk namunalari hisoblanadi. Mazkur asarlarni xronika asosida tartiblashtirish, o‘zbek xalqi tarixining badiiy adabiyotdagi talqinini chiziqli talqin va sivilizatsiyalar talqini asosida tekshirish ham adabiyoti uchun, ham tarix uchun muhim bo‘lgan xulosalarni berishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Султон И. Билга хоқон: роман, қисса ва ҳикоялар / Т.: Factor Books, 2022. - Б. 240. (ISBN 978-9943-8118-8-1).
2. Архангелская А.К. Проблема конкретной исторической личности в узбекской советской прозе. Автореферат канд.дисс., Т.: 1977, - С. 28.
3. Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. д-ри. дисс. – Т.: 2012.
4. Зайниддинова А.К. Изображение характера и обстоятельства в узбекских историческом романе 70-х годов Автореферат канд.дисс., Т.: 1981, - С. 24.
5. Исаева Ш.Б. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Филол. фан. номз. дисс. автореф., Т.: 2001, - Б. 22.
6. Каримов ?. Тарихий шахс ва бадий образ: Филол. фан. номз. дисс. - Т.: 1999.
7. Botirova, S. I. (2024). AESTHETIC PERCEPTION AND GENRE HARMONY. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(05), 80-85.
8. Botirova, S. I. (2024). LANDSCAPE IN SHORT ART. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(06), 38-44.
9. Jurayeva, N. (2025). HOSIYAT BOBOMURODOVA SHE’RIYATINING POETIK XUSUSIYATLARI. Indexing, 1(1), 91-95.
10. Juraeva, N. G. (2021). Observation of the poetic unity of the verse in the poetry of

Muhammad Riza Ogahi. International Journal of Linguistics, Literature and Culture, 7(4), 293-302.

11. Хужаев, М. И. (2020). Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online, 5(8).